

**O‘ZBEK FILOLOGIYASINING DOLZARB
MASALALARI VA UNI O‘QITISH METODIKASI
MUAMMOLARI**



O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim,
fan va innovatsiyalar vazirligi
Jizzax davlat pedagogika universiteti

**O‘ZBEK FILOLOGIYASINING DOLZARB
MASALALARI VA UNI O‘QITISH
METODIKASI MUAMMOLARI**



• **2024-yil 14-dekabr**

**III xalqaro an’anaviy ilmiy-amaliy
anjuman materiallari**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI



**O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI
tomonidan tashkillashtirilgan**

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASINING DOLZARB MASALALARI
VA UNI O‘QITISH METODIKASI MUAMMOLARI”**

mavzusidagi III XALQARO an’anaviy ilmiy-amaliy anjuman

**MATERIALLARI
(1-kitob, I va II shu’balar)**



Jizzax – 2024

OO‘K: 821.512.133

KBK: 83.3(5o‘)

Mazkur 2 jilddan iborat kitob O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi 2024-yil 18-yanvardagi 16-son farmoyishi bilan tasdiqlangan “2024-yilda o‘tkazilishi tasdiqlangan Xalqaro va Respublika ilmiy va ilmiy-texnik anjumanlar rejasi”ga kiritilgan buyrug‘ining 1-ilovasiga muvofiq Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universitetida “O‘zbek filologiyasining dolzarb masalalari va uni o‘qitish metodikasi muammolari” mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tayyorlandi.

To‘plam adabiyotshunos olimlar, izlanish olib borayotgan yosh tadqiqotchilar, o‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchilari hamda magistrlar uchun mo‘ljallangan.

TO‘PLOVCHI VA NASHRGA TAYYORLOVCHI:

JDPU professori, f.f.d. (DSc)

Nodira Soatova Isomitdinovna

JDPU dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

Turopova Parizod Shavkat qizi

BOSH MUHARRIR:

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida professori,

filologiya fanlari doktori

Usmon Qosimov

O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti

dekani, f.f.n., dotsent

Ibragimova Fazilat Erkinovna

MAS‘UL MUHARRIR:

O‘zbek tili va adabiyoti

kafedrasida mudiri, dotsent, f.f.f.d. (PhD)

JDPU professori, f.f.d. (DSc)

Jo‘rayev Murodulla Alishboyevich

Nodira Soatova Isomitdinovna

TAQRIZCHILAR:

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida

dotsenti, f.f.n.

Mamadaliyeva Zuhra Umaraliyevna

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida

dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

Fayzullayeva Dilnoza Narimonovna

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida

dotsenti v.b., f.f.f.d. (PhD)

Ne‘matova Hulkar Abdulbakiyevna

Ushbu to‘plam Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universitetining Ilmiy-texnik kengashi (11-sonli bayonnomasi, 21-dekabr 2024-yil) qarori asosida nashrga tavsiya etildi.

**ISAJON SULTONNING TABIATNI
TASVIRLASH MAHORATI**

*Davronova Shohsanam G‘aybulloyevna,
BuxDU professori v.b.
filologiya fanlari doktori (DSc)*

Tabiat tasviri nasriy asarlarda yozuvchining badiiy mahoratini va ijodkorligini ko‘rsatishga xizmat qiluvchi muhim jihatlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Bu borada yozuvchi Isajon Sulton hikoyalari alohida e‘tiborni tortadi.

Ijodkor peyzaj tasvirida badiiy nasrning imkoniyatlaridan keng foydalanadi, so‘zga boyligini va poetik mahoratini namoyon etadi. U tabiatni tasvirlash jarayonida o‘xshatish, sifatlash, jonlantirish, metafora kabi badiiy ifoda vositalarini keng qo‘llanadi. Adib hikoyalarida shamol, to‘fon, yomg‘ir, bulut, kapalaklar, o‘simliklar, tog‘lar va shu kabilar bilan bog‘liq tabiat tasvirlari jonlantirish, sifatlash, o‘xshatish kabi turli poetik tasvir vositalari yordamida yorqin aks ettiriladi. Adib tasvirlagan o‘simliklar, jonzotlar, tabiat hodisalari insonlar kabi ko‘plab jihatlarni namoyon etadi, ular his etadi, harakat qiladi, so‘zlaydi erkalanadi, qadrlanadi va hokazo. Yozuvchi qalamida tabiat turfa ranglari, jozibasi bilan namoyon bo‘ladi. Natijada o‘quvchi hikoyalarda aks ettirilgan badiiy manzarani haqqoniy tasavvur qiladi, tiniq ko‘rgandek bo‘ladi. Masalan, quyidagi parchaga diqqat qarataylik: “Qishda bu yer yalang bo‘lganligi uchun aksariyat izg‘irin shamol hushtak chalib, sovuqda muz qotgan oppoq, toza qor zarralarini uchirar, kulba devori hamda archalarning tagiga uyib o‘ynardi” [1.78]. Aslida shamol ta’sirida shovqinning eshutilishi, shuningdek, qorlarning bir joyga uyum bo‘lib to‘planishi oddiy tabiat hodisasidir. Ammo adib bu hodisalarni ijodkor nigohi bilan kuzatadi va poetik ifodalar asosida kitobxonga taqdim etadi. Natijada izg‘irin shamol qor zarralarini uchirayotgan va o‘ynayotgan alfozda jonli obraz sifatida ko‘z oldimizda gavdalanadi.

Ijodkor hikoyalarida o‘xshatishlardan unumli foydalanilgan. Masalan, “Xun” hikoyasida keksa jangchi Erxonning o‘ldirilishi voqeasi haqida so‘z borar ekan, shunday jumlar keltiriladi: “Quyosh, Tangritog‘ ortiga qonday qizarib, baayni yarador jangchi misoli yonboshladi” [1.25]. Bu o‘xshatish hayoti fojiali yakun topayotgan, “tomog‘idan issiq qon hovur taratib, tizillab oqa boshladi” [1.78] deya ta’riflangan qahramonning holatiga muvofiq keladi. Yoki asar qahramoni Oyto‘ldining tasvirini keltirar ekan, ijodkor “Qomati marhum eri, jangchi Erxonning ko‘hna yoyi kabi egildi, xanjardek kipriklari to‘kildi, jismidan quvvat ketdi” [1.34] deb yozadi. Boshqa bir o‘rinda esa u “Qomati yanada bukilgan, vujudi madorsizlikdan xuddi shamolda qolgan tol novdasiday chayqalardi” [1.29] deb tasvirlanadi. Bu tasvirlar qarigan, g‘amdan qaddi bukilgan ayolning ko‘rinishini yorqin tasavvur qilish umkonini beradi.

Adibning “Ona yurt sog‘inchi” asarida jonlantirish san’atidan unumli foydalanilganligini ko‘rish mumkin. Hikoyada boshdan oxir butun qishloq jonlantiriladi, unda tabiatga jonli va qadrdondek munosabatda bo‘linadi. Masalan:

“Hatto osmon ham seni so‘rayotganga o‘xshaydi. “Bir bolang bo‘lardi, quyoshda qoraygan, qoramag‘iz. Shaftoli shoxiga chiqib olib rosa qichqiradiganing... o‘sha qani?” deya.

Yomg‘irlar izingni so‘rashadi, “suvlar sochib o‘ynaydigan bolang qayda” deya.

Daraxtlar muztar-muztar turishadi, “mevalarimiz pishganida shoxlarimizni egib-egib yeydigan bolang ko‘rinmaydi-ya”, deb?

Shamollar aytishadi, “Esganimizda bizga qo‘shilib qichqirib chopadigan kichkinang nega ko‘rinmayapti” deb?” [1.354].

Bunda qishloq bolasini so‘rayotgan osmon, yomg‘irlar, daraxtlar, shamollar yozuvchining poetik maqsadiga ko‘ra nutqlantiriladi. Bu orqali tabiat bilan bir butun bo‘lgan insonning tabiatga, tabiatning insonga kerakli ekanligi anglatiladi.

Asardan olingan quyidagi parcha ham e‘tiborimizni tortadi: “So‘lim va suluv vodi y aro bir tomoni tog‘lar, bir tomoni dasht-u dala uzra yastangan, gul-chechak taqqan bir nozli suluvday ekan. Mening umrim o‘tgani sayin uning yosharib boraverganiga nima deyin?” [1.352]. Vodi y ga nisbatan “so‘lim va suluv” sifatlashining qo‘llanilganligi, uning gul-chechak taqqan nozli suluvga o‘xshatilishi, yastangani va yosharib boraverganini kuzatish orqali unga jonlidek munosabatda bo‘linganligi yozuvchining poetik o‘ziga xos yangiligini ko‘rsatib turadi.

“Oydinbuloq” hikoyasida esa asar qahramoni tilidan Oydinbuloq jonli mavjudot singani aks ettiriladi: “Oydinbuloq hanuz miltiraydi”, “Oydinbuloq esa sokin jimirlaydi” [1.58] kabi ifodalar orqali buloqning betakror ko‘rinishini tasavvur qilish mumkin.

“Bog‘i Eram” hikoyasidagi kuz tasviri orqali esa yozuvchining originalligi yaqqol kuzatiladi: “Kuzning bunaqa go‘zalligini sira ko‘rmaganman. Darvoza qarshisidagi daraxtdan oltin yaproqlar mungli bir jarang bilan bandidan uzilib, yerga sollana-sollana qo‘nardilar” [1.76]. Yaproqlarga nisbatan oltin sifatlashining qo‘llanilishi, ularning shunchaki yerga tushishi emas, balki bandini tark etgani uchun mungli bir jarang bilan uzilishi, yerga ham shunchaki tushishi emas, balki sollana-sollana qo‘nishi tasvirlari orqali o‘quvchi kuz manzarasini aniq tasavvur qilishi barobarida, bu tasvirlarning zamirida yotgan ramziy, falsafiy mohiyat, o‘tkinchilik, ayriliq, tark etish pallasining og‘irligi kabi tushunchalarning mazmunini chuqurroq anglashi mumkin.

Adib hikoyalarida tabiat tasviri ramziy mohiyat kasb etib, yozuvchining tasvirlash va g‘oya ifodalashdagi o‘ziga xos uslubini namoyon etadi. “Mening gulim” hikoyasining boslanishida keltirilgan “Ko‘ngil bog‘imdan bir nihol unib chiqdi” [1.34] satrlari e‘tiborni tortadi. Ko‘ngil bog‘idan ungan nihol haqida,

tabiiyki, avvalo muhabbat ramzi bo‘lishi mumkin, degan tasavvur uyg‘onadi. Shu bilan bir qatorda ramziy ifoda borasida yana boshqa xulosalarga ham kelish mumkin. Biroq bunda yozuvchining o‘ziga xos ifoda yo‘sini bilan nihol betakror badiiy bo‘yoqdorlikda tasvirlanadi. “Shu qadar ajoyib, xush bir gul. Bir oy o‘tib-otmay, ikkita g‘uncha tugdi – g‘unchasiyam ajib: yashil to‘n kiygan, to‘nining ostidan pushti qabosi xiyol ko‘rinib, turipti, qaboning chetlari nozik naqshlar bilan munaqqash bo‘lgan. Bunday libos olamdagi hech bir gulda yo‘q” [1.35]. Yozuvchi tasvirida gulning go‘zalligi, tarovati kiyim-boshiga o‘xshatilib, aks ettiriladi. Asarning boshqa bir o‘rnida esa uning tabiatdagi o‘zgarishlarga mos holda tovlangan ko‘rinishi namoyon etilib, poetik obraz sifatida gavdalaniriladi. Natijada qaysargina, o‘jargina, o‘zbilarmongina bu niholcha o‘z tarovatidan o‘zi mast boladi, tiknlarini ko‘z-ko‘z qiladi, o‘ziga-o‘zi mahliyo bo‘ladi, musiqani yoqtiradi, so‘z qotishni-da o‘ziga ravo ko‘rmaydi va hokazo. Yozuvchining poetik tasvir vositalaridan foydalanish mahorati o‘laroq nihol obraz darajasiga ko‘tarilib, go‘zalligi bilan to‘laqonli gavdalanadi. Muhabbat bor joyda, tabiiyki, raqobat, mojarolar haqida ham so‘z boradi. Ijodkorning bu boradagi topilmalari ham tabiat bag‘ridan tanlanadi: “Mening gulimning esa yangi oshiqdari paydo bo‘pti. Tong payti qarasam, subh o‘zining nozik, qizg‘ish shafag‘ini yoyib, bir nimalar deb sirli pichirlayotir. Peshin mahali qarasam, qaynab-toshgan quyosh o‘zining haroratiga o‘zi chidayolmay, ishq otashidan so‘zlayotir. Shom mahali qarasam – zanjivachcha oqshom o‘zining iztiroblarga to‘la dil daftarini sahifa-sahifa ochib qo‘yipti. Xufton mahali qarasam, yulduzlar biri olib, biri qo‘yib, gulim tevaragida jivirlashayotir” [1.37]. Ko‘rinib turibdiki, bunda gulning oshiqdari sifatida subh, quyosh, oqshom, yulduzlar tanlab olinadi. Quyosh qaynab-toshgan, oqshom esa zanjivachcha sifati bilan sifatlanadi. Kuz Sayyod deb ataladi, Sayyod esa o‘z ortidan xazon sipohini ergashtirib keladi, sayyodning gumashtasi – qirg‘iyak shamoli g‘uvillab qahqaha otadi va hokazo. Shu taxlit hikoya boshdan-oxir ramziylik asosida qurilgan bolib, jonlanrish, mubolag‘a, sifatlash vositasida, yozuvchining ijodiyliги natijasida poetik fikr ifoda etiladi.

Xulosa qilib aytganda, Isajon Sulton hikoyalarida tabiat tasviridan unumli foydalanilgan. Adib asarlarida betakror so‘z bo‘yoqlari orqali chizilgan borliqning jonli manzarasi o‘quvchining ko‘z o‘ngida yorqin namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Исажон Султон насри бадияти. – Тошкент: Турон замин зию, 2017.
2. Султон И. Асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017.
3. G‘aybulloevna D. S. The Issue of Artistic Image of Nature and Method In The Works Of Isajan Sultan (On The Example Of “The Missing Motherland”) //Indonesian Journal of Innovation Studies. – 2022. – T.

4. Қуроноф Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013.

“ИЛМ ҲАМ ИБОДАТДИР...”
(*Абдусалом Абдуқодиров илмий фаолиятига қисқача чизгилар*)

*Файзуллоев Бахтиёр Бобожонович,
Суюнов Мавлонберди Раҳмонович,
Абдуллоев Олимжон
Нусратуллоевич
Тожикистон, Хўжанд ДУ
доцентлари, филология фанлари номзодлари*

Азал-азалдан не-не алломаларни камолга етказган қадимий ва ҳамиша навқирон Хужанд шаҳрида ярим аср давомида ўзбек адабиётшунослик мактаби ҳам қад ростлади. Бу мактабда камолга етган олимлар орасида заҳматқаш навоийшунос, зукко тасаввуфшунос, адабий алоқалар тадқиқотчиси, филология фанлари доктори, профессор Абдусалом Абдуқодиров ҳам бор эдилар.

Азиз устозимиз А. Абдуқодиров 1974 йили олий даргоҳдаги ўзбек адабиёти кафедрасига ишга таклиф қилиниб, ярим асрдан ортиқ салоҳиятли жамоада ҳалол меҳнат қилдилар. Ўтган йиллар давомида лаборантликдан факултет деканлигигача, ўқитувчиликдан фан докторлигигача бўлган зиналарни бирма-бир босиб ўтиб, ҳавас қилса арзигулик натижаларга эриша олган том маънодаги адабиётшунос олим эдилар.

А.Абдуқодиров 1986 йилда академик Салоҳиддин Мамажонов раҳбарлигида Улуғ Ватан уруши даври шеърлятида поэтик образ масаласига доир номзодлик ишини муваффақиятли ҳимоя қилган эдилар. Устознинг тадқиқот иши замонавий шеърлятдан бўлса-да, у кишининг мумтоз адабиётга меҳрлари ўзгача эди. Айниқса, Алишер Навоий мероси тадқиқотчини доимо ўзига мафтун этиб келар эди.

Устоз ўзбек филологияси факултетидаги ўзбек адабиёти кафедрасида чорак аср давомида мудирлик вазифасида фаолият олиб бордилар. Бу даврда факултет миқёсида ўтказилган кўплаб тадбирлар, олим ҳамда ижодкорлар билан учрашувлар, адабий кечалар, янги китобларнинг тақдимоти шунингдек, турли мавзудаги анжуманлар устознинг ташаббуси ҳамда раҳнамолиги остида ўтказилар эди. Мазкур кафедра илмий салоҳият жиҳатидан университет бўйича доимо олдинги ўринда бўлиб, ҳар йили илмий тўпламлар, рисола ҳамда монографиялар узлуксиз нашр этилиб, уларда адабиёт илмига доир муҳим масалалар ёритиб борилар эди.

MUNDARIJA
**I. SHARQ VA G‘ARB XALQLARI ADABIYOTIDA
UMUMADABIY-MADANIY, BADIY-ESTETIK, NAZARIY-FALSAFIY
MUAMMOLAR**

Shu’ba raisi: f.f.doktori (DSc), professor Usmon Qosimov
Kotibi: JDPU o‘qituvchisi Bo‘ronov Ikrom Quchqarovich

T/r	Mualliflar va maqolalar	Sahifasi
1.	AĖAYEVA XURAMAN. Arxiv sənədlərinin əlçatan olmasında elektron xidmətlərin əhəmiyyəti	4
2.	SOATOVA NODIRA. “Yusuf va Zulayho” dostonidagi Yusuf obrazı talqını	8
3.	KARIMOVA FARIDA. Fors adabiyotida debochanavislik an’analari	11
4.	HASANOVA SHAFOT. “Qush tili”ning nomlanishi masalasi	18
5.	ҲИКМАТОВ ҲИКМАТ. Мулоҳизае чанд доир ба ашъори лирикии адибаи зуллисонайн – Дилшоди Барно	21
6.	VAZUFA HÜSEYNAGA KIZI KHUDIYEVA. Azərbaycan'da kültürel mirasların ve anıtların korunmasının tarihi	30
7.	DJURAKULOVA ELMİRA. “Qutadg‘u bilig” asarının bo‘lajak huquqshunoslar uchun muhim ahamiyati	34
8.	MURODOVA MOHIGUL. Chingiz Aytmatovning “Asrni qaritgan kun” romanining tahlili	36
9.	ABDIJAVLIYEVA MUNISA. Sharq va G‘arb adabiyotida badiiy-estetik tamoyillar: o‘zaro ta’sir va rivojlanish	44
10.	DAVRONOVA ODINAXON. “O‘gay ona”da ruhiyat va hayot haqidagi talqin	46
11.	АЛИМАМАТОВА ҲАДИСА. Чанд сухан доир ба даврахои инкишофи таърихи забонҳои Эронӣ	48
12.	REJEPOVA UL DANAY. Gabriel Garsia Marquesning “Yolg‘izlikning yuz yili” asari tahlili	51
13.	ABBASOVA GULNARE. Vagif Bayatlı oder’in şiirinin temel düşünel-sanatsal özelliklerinden biri olarak paradokslar	52
14.	MUXTOROVA PARIZODA. Jek Londonning “Hayotga muhabbat” asari tahlili	58
15.	ANORBOYEVA MARJONA. Jek London ijodida o‘ziga xoslik	60
16.	RIXSIBOYEVA SEVINCH. Ahmad Lutfiy Qozonchining “Qaynona” romanida axloqiy fazilatlar	64
17.	ШАКАРОВ ОЙБЕК. Чистонгӯй дар адабиёти бачагона ва хусусиятҳои он	67
18.	BEKMURODOVA SADOLAT. Jek Londonning “Hayotga muhabbat” hikoyasi tahlili	71

2.	FATIH ÖZTÜRK. Özbek şaire Halıma Xudoyberdiyeva'nın şiirlerinde vatan sevgisi ve hürriyet	132
3.	ONUR AYKAÇ. Geleneksel türk tiyatrosunda seyirci-oyuncu etkileşimi meselesi: Ortaoyunu örneği	136
4.	QOSIMOV USMON. Istiqlol va adabiyotshunosligimizning ba'zi muammolari (Adabiyot darsliklarimiz haqida mulohazalar)	140
5.	ЖУМАНАЗАРОВ УМРЗОҚ, ШАРИПОВА МАХБУБА. “Алпомиш” достонида совчилик удумларининг ифодаланиши	150
6.	САБИРДИНОВ АКБАР. Мақсуда Эргашева шеъриятида даврнинг долзарб муаммолари талкини	159
7.	ADIZOVA IQBOLOY. Mehrning mustahkam rishtalari	162
8.	АБДУЛЛОЕВ ОЛИМЖОН. “Роҳати дил” асарида келтирилган ҳикоятларнинг тарбиявий аҳамияти	166
9.	ПАРДАЕВА ЗУЛЬФИЯ. Узбекское литературоведение XXI века: тенденции развития	170
10.	YAQUBOV ISLOMJON. Roman-esseda individual uslub va yozuvchi mahorati	177
11.	ҲАМДАМОВ УЛУҒБЕК. Истиклол даври ўзбек шеъриятининг ўзига хос хусусиятлари	183
12.	ҚОБИЛОВ УСМОН. Алишер Навоийнинг “Холу хатинг...” ғазали бадий таҳлиliga доир	189
13.	NASIROV AZIMIDIN. O‘zbek romanchiligi va poetik talqin	194
14.	ОТАЖАНОВА МАНЗУРА. Роман композициясида архетип ва мифик сюжет	200
15.	DAVRONOVA SHOHSANAM. Isajon Sultonning tabiatni tasvirlash mahorati	211
16.	ФАЙЗУЛЛОЕВ БАХТИЁР, СУЮНОВ МАВЛОНБЕРДИ, АБДУЛЛОЕВ ОЛИМЖОН. “Илм ҳам ибодатдир...” (А.Абдукодиров илмий фаолиятига қисқача чизгилар)	214
17.	ДАВЛАТОВА АДИБА. Абдулла Орипов лирикаси таҳлиliga доир мулоҳазалар	220
18.	МАТЎОҚУБОВА ТОЗАГУЛ. Туғ‘у va kechinmaning poetik ifodasi	227
19.	ҚЎЧҚОРОВА МАРҲАБО. Иброҳим Ғафуров бадий публицистикаси ҳақида	232
20.	SOATOVA DILBAR. Ma'naviy me'ros barkamol inson tarbiyasi maktabidir	237
21.	MAMADALIYEVA ZUHRA. Alisher Navoiy “Xamsa”sida quyosh obrazining majoziylik xususiyatlari	240
22.	ERNAZAROVA GULBAHOR. Mumtoz so‘z san’atining zamonaviy she’riyatga ta’siri	246

**O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI**

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASINING DOLZARB MASALALARI VA
UNI O‘QITISH METODIKASI MUAMMOLARI”**

mavzusidagi

**III XALQARO AN‘ANA VIY ILMIY-AMALIY ANJUMAN
MATERIALLARI**

1-KITOB

(1-2 shu‘balar asosida)

Muharrir: S.Normuhammedov

Musahhih: J.Murtozayev

Sahifalovchi: G.Kadirova

Guvohnoma № 14-0003, 30.04.2020 Ofset qog‘ozi.

Bosishga ruxsat etildi 21.12.2024 Format A4. Garnitura «Times New Roman». Shartli bosma taboq 31,37 Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 61

JDPU tahririy-nashriyot bo‘limida chop etildi.

130100, Sh.Rashidov shohko‘chasi, 4-uy

Tel./faks: (+99872) 226-02-93

(+99893) 305-85-00

 KONFERENSIYA
MATERIALLARI

SHU’BALAR

-  SHARQ VA G‘ARB XALQLARI ADABIYOTIDA UMUMADABIY-
MADANIY, BADIY-ESTETIK, NAZARIY-FALSAFIY MUAMMOLAR
-  IBADIY MAHORAT: TALQIN VA TAHLIL
-  TIL TARIXI, TILSHUNOSLIK VA TILLARNI
QIYOSIY O‘RGANISH MASALALARI
-  ADABIY MANBANI MATNIY TADQIQ ETISHNING
USTUVOR VAZIFALARI
-  BADIY TARJIMA MUAMMOLARI
-  TA’LIM TIZIMIDA INTEGRATSIYALASH
USULLARINI JORIY ETISH

JIZZAX- 2024



<https://jdpu.uz/>

